O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi




# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar ..... 82
**D.A.Djurakulova**
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar ..... 87
**A.R.Dilbarjonov**
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli ..... 92
**N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova**
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari ..... 95
**M.Sh.Dehqonova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish ..... 99
**B.Q.Qurbonova**
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari ..... 102
**M.I.Madraximova**
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish ..... 106
**Z.Q.Abdullayeva**
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi ..... 110
**О.А.Васильченко**
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении ..... 114
**S.R. Shermatova**
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari ..... 120
**M.Nasritdinova**
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish ..... 124
**D.Sh.Jo'raboyeva**
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar ..... 129
**U.I.Obidjanov**
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari ..... 134
**J.M.Otajonov**
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества ..... 139
**M.A.Nurmatova**
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari ..... 146
**S.B.Tangirqulov**
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari ..... 151
**Z.N.Asqarova**
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish ..... 156
**N.Sh.Rustamova**
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich) ..... 160

PEDAGOGIKA

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a22

UO'K: 378.011.3-051:005.32

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNI INTELLEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY SHERIKCHILIKNING ROLI

# РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЁРСТВА В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

# THE ROLE OF SOCIAL PARTNERSHIP IN PREPARING STUDENTS FOR INTELLECTUAL ACTIVITY BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

**Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li**
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish sektori va jamoat institutlari o'rtasidagi hamkorlikning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, intellektual salohiyatni rivojlantirishda hamkorlik muhiti, refleksiya, innovatsion topshiriqlar va amaliy integratsiyaning metodik ahamiyati asoslab berilgan.*

***Аннотация***

*В статье рассматриваются методические задачи педагогического социального партнёрства в процессе подготовки студентов к интеллектуальной деятельности. Анализируются теоретические и практические аспекты сотрудничества между высшими учебными заведениями, производственным сектором и общественными институтами. Особое внимание уделено значению среды сотрудничества, рефлексии, инноватsionных заданий и практической интеграtsии в формировании интеллектуального потенциала студентов.*

***Abstract***

*The article analyzes the methodological tasks of pedagogical social partnership in preparing students for intellectual activity. It highlights the theoretical and practical aspects of cooperation between higher education institutions, the industrial sector, and social organizations. Special emphasis is placed on the methodological significance of cooperative learning environments, reflection, innovative tasks, and practical integration in fostering students' intellectual capacity.*

***Kalit so'zlar:*** *intellektual salohiyat, ijtimoiy sherikchilik, pedagogik imkoniyatlar, metodik vazifalar, innovatsion ta'lim.*

***Ключевые слова:*** *интеллектуальный потенциал, социальное партнёрство, педагогические возможности, методические задачи, инноватsionное образование.*

***Key words:*** *intellectual capacity, social partnership, pedagogical opportunities, methodological tasks, innovative education.*

## KIRISH

Globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda oliy ta'lim tizimida asosiy vazifalardan biri talabalarni intellektual jihatdan rivojlantirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlashdir. Intellektual salohiyatning yuksalishi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, ijodiy qarash va yangicha g'oyalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ta'lim jarayonida ijtimoiy sherikchilik tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ijtimoiy sherikchilik oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish sektori, davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik bo'lib, uning natijasida talabalar real hayotiy jarayonlarga yaqinlashadi, kasbiy tajribaga ega bo'ladi va intellektual imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur tamoyillar asosida shakllanadigan metodik imkoniyatlar ta'lim sifatini oshirish va talabalarda raqobatbardoshlik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga yo'naltirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki ijtimoiy sheriklar ota-onalar, ish beruvchilar, mahalliy hamjamiyatlar, nodavlat tashkilotlar ham faol ishtirok etishi zarur. Ijtimoiy sheriklik asosida olib borilgan pedagogik hamkorlik talabalarning intellektual faoliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sheriklikning pedagogik va metodik asoslarini chuqur o'rganish, ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-uslubiy muammo hisoblanadi.

XXI asrda ta'lim jarayonida ijtimoiy sherikchilik tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuv talabalarni yuqori darajadagi tafakkur kompetensiyalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ularni an'anaviy fikrlash chegaralaridan chiqarib, ijodiy, mantiqiy va produktiv tafakkurga yo'naltiradi. Shu jarayonda intellektual faoliyatni rivojlantirish uchun ta'lim tizimiga integratsiyalash mumkin bo'lgan muhim imkoniyatlardan biri rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish va uni tatbiq etish, qisqa muddatli va uzoq muddatli ta'limiy maqsadlarni aniq belgilash va loyihalashdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida davlat boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyat, jamoat tashkilotlari, oilalar va boshqa manfaatdor tomonlarning hamkorligini ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning samarali strategiyalarini joriy etish zarur. Ta'lim sohasida turli manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va talablarini muvozanatlashtirish, talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sherikchilik asosida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari ham ta'lim jarayonida ijtimoiy sherikchilik va kooperatsiyaning ahamiyatini asoslab beradi. Jumladan, D.B.Miller ijtimoiy kooperatsiya jarayonida umumiy maqsadning mavjudligi va guruh a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi samaradorlikni ta'minlashini ta'kidlagan. M.A.Mey va L.U.Dub ham kooperativ ta'lim jarayonida qatnashchilar o'rtasida umumiy maqsad bilan bir qatorda o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish muhimligini alohida qayd etadilar. M.Midning fikricha, ijtimoiy sherikchilik asosidagi faoliyatda umumiy obyektga erishish jarayoni yuzaga chiqadi, raqobat sharoitida esa talaba o'z faoliyatini individual tarzda natijaga yo'naltiradi.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy sherikchilikning kollektiv formatini rivojlantirish bo'yicha D.V.Johnson va R.T.Johnsonlar talabalar faoliyatini kichik guruhlarda muvofiqlashtirish zarurligini asoslab bergan. D.De Friz va K.Edvards esa o'quv faoliyatini jamoaviy hamkorlik asosida tashkil etishda o'yin metodologiyalaridan foydalanishni taklif etgan. S.Sharan va Y.Sharan talabalarning qiziqishlari asosida ularni guruhlarga birlashtirish g'oyasini ilgari surgan bo'lsalar, R.E.Slavin o'quv jarayonida talabalarni kichik jamoalarga ajratish va o'quv materialini hamkorlik asosida o'zlashtirish metodikasini ishlab chiqqan. E.Aronsonning konsepsiyalarida esa talabalar o'zaro hamkorlikda o'z vazifasining bir qismini bajarish bilan birga, boshqa guruh a'zolariga yordam berishi, bilimlarni bir-biriga izohlashi va umumiy maqsadga erishishda faol ishtirok etishi zarurligi qayd etilgan.

Ta'lim jarayonini ijtimoiy sherikchilik asosida tashkil etish oliy ta'lim amaliyotida sezilarli ijobiy natijalar beradi. Xususan, bu yondashuv ta'lim mazmunini boyitadi, sifatini oshiradi, talabalarni intellektual, axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantiradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va intellektual faolligini rivojlantirish orqali jamiyatda faol pozitsiya egallashiga xizmat qiladi. Natijada pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalari hamkorlik muhiti yaratish, refleksiya, innovatsion topshiriqlarni qo'llash va amaliy integratsiyani ta'minlash talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik imkoniyatlari talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ko'p qirrali ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur jarayonni samarali tashkil etishda ularning aniq metodik vazifalarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish zarur. Quyida ushbu metodik vazifalarning mazmuni va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritib beriladi.

1. Hamkorlik muhiti yaratish. Talabalarning intellektual faoliyatga tayyorlanishida hamkorlik muhiti markaziy o'rin tutadi. Guruhli ishlash, o'zaro fikr almashish va kooperativ qaror qabul qilish jarayonlari ularni shunchaki bilim qabul qiluvchidan faol subyektga aylantiradi. Bu jarayon talabalarni birgalikda muammolarni hal qilishga, o'z pozitsiyasini asoslashga va intellektual bahs-

munozaralarda qatnashishga undaydi. Natijada ularda ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot madaniyati va jamoada faoliyat yuritish malakalari rivojlanadi.

2. Refleksiya va o'zaro tahlil. Intellektual salohiyatni oshirishning muhim shartlaridan biri talabalarni refleksiya faoliyatiga jalb etishdir. O'z-o'zini tahlil qilish, faoliyat natijalarini baholash, kamchiliklarni aniqlash va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish jarayoni ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. O'zaro baholash esa talabalarni jamoada mas'uliyat bilan ishlashga, hamkorlarning fikrini inobatga olishga va konstruktsiv qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Bu metodik vazifa talabalarni o'z bilimlarini muntazam tekshirish va yangilashga o'rgatadi.

3. Innovatsion topshiriqlar. Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda noodatiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar muhim metodik vosita hisoblanadi. Innovatsion topshiriqlar talabalarni o'ylashga, tahlil qilishga va yangi yechimlar topishga majbur qiladi. Bunday yondashuv nafaqat ijodiy fikrlashni, balki moslashuvchanlik, tashabbuskorlik va yangicha qarashlarni shakllantiradi. Shu orqali talaba real hayotdagi muammolarga innovatsion yondashuv asosida echim izlashga tayyorlanadi.

4. Amaliy faoliyat bilan integratsiya. Nazariya va amaliyotning uyg'unligi pedagogik ijtimoiy sherikchilikning eng muhim natijasi hisoblanadi. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyotida, ijtimoiy loyihalarda yoki jamoat faoliyatida ishtirok etishi ularda nafaqat kasbiy tajribani, balki nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash malakasini ham rivojlantiradi. Amaliy faoliyat bilan integratsiya orqali talaba o'z kasbiy tayyorgarligini oshiribgina qolmay, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning intellektual rivojlanishini jadallashtiradi, ularni bilimli, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Demak, pedagogik ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida shakllangan metodik vazifalar talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy tahlil va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali vositasidir. Ularning uyg'un qo'llanishi ta'lim jarayonini nafaqat nazariy jihatdan boyitadi, balki uni amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'laydi. Natijada talabalar bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan, global mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual salohiyatli mutaxassis sifatida shakllanadi. Yuqoridagi ilmiy mulohazalar shuni tasdiqlaydiki, talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlash jarayonida ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida shakllantirilgan metodik vazifalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi kuchli pedagogik omil hisoblanadi. Hamkorlik muhiti, refleksiya, innovatsion topshiriqlar va amaliy integratsiya kabi yondashuvlar nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy qarash va intellektual salohiyatini yuksaltiradi. Bu yondashuv zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biriglobal mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual jihatdan yetuk va ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik kompetensiya va kasbiy tayyorgarlik. – Toshkent: Fan, 2012. 210 b.
2. Hasanboyeva O. Oliy ta'limda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2015. 168 b.
3. Xodjayev N. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. 192 b.
4. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – P. 87–103.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – P. 79–91.
6. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – P. 33–56.